
Saylovlar demokratik tamoyillar asosida o'tadi

Markaziy saylov komissiyasi xalqaro matbuot markazining Farg'ona viloyati hududiy bo'limida o'tkazilgan matbuot anjumani joriy yilgi saylovga tayyorgarlik ishlariga bag'ishlandi.

Muhim siyosiy jarayonda Farg'ona viloyatidan 2 million 333 mingdan ziyod saylovchi ishtirok etishi kutilmoqda. Viloyatda Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazuvchi 17 ta, xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazish bo'yicha 60, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi 567 okrug saylov komissiyasi tuzildi. Ularning komissiya tarkiblari tasdiqlanib, matbuotda e'lon qilindi.

Markaziy saylov komissiyasining xalqaro matbuot markazi viloyat hududiy bo'limi ham faoliyatini boshladi. Bu yerda barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, 20 ta kompyuter jamlanmalari internet tarmog'iga ulandi.

Saylov kodeksining 89-moddasiga muvofiq, siyosiy partiyalarning viloyat kengashlari raisi tomonidan imzolangan xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashiga o'tkaziladigan saylovda ishtirok etish to'g'risidagi ariza hamda Adliya vazirligining siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida to'rt oy oldin ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar viloyat saylov komissiyasiga taqdim etildi. Kelib tushgan ariza va ma'lumotnomalar komissiya a'zolari tomonidan ko'rib chiqildi va har bir partiyaga xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashi deputatlari saylovida qatnashishiga ruxsat berish to'g'risidagi viloyat saylov komissiyasining qarori qabul qilindi. Beshta siyosiy partiyaning vakolatli vakillariga viloyat saylov komissiyasining mazkur qarori tantanali topshirildi.

M.SULAYMONOV, O'ZA

2019-10-18 08:39:50